



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2025-yil 11-sentabr

449-4-0-Q/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

Viloyat ichki ishlar boshqarmasiga Qarshi shahri “Buyuk Turon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan “Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko‘rsatish markazi (IIB JXX HPB VYIHYKM), viloyat IIB tibbiyot bo‘limi hamda sport majmuasi” bino va inshootlarini loyihalashtirib qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, viloyat ichki ishlar boshqarmasining 2025-yil 8-iyuldagi 3/2-398-son buyurtma xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi, vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari va kelishuvlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasiga Qarshi shahri “Buyuk Turon” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi shahar hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 2,88 gektar yer maydoni “Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko‘rsatish markazi (IIB JXX HPB VYIHYKM), viloyat IIB tibbiyot bo‘limi hamda sport majmuasi” bino va inshootlarini loyihalashtirib qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlar xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda uch ish kuni davomida yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilasin.

6. Ushbu yer uchastkasining chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi tomonidan naturada (joyning o‘zida) belgilanguniga hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar mazkur yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlansin.

7. Ushbu yer uchastkasida qurilish ishlarini boshlashga yoki davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan boshqa maqsadlarda foydalanishga faqat ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin yo‘l qo‘yiladi.

8. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi bilan birgalikda ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

9. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

10. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining “gov.uz/oz/qashqadaryo” rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov